

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

18. Hikmat o‘g‘li A. S. et al. BIR UMUMLASHGAN FIRIDRIXS MODELINING XOS QIYMATLARI JOYLASHISH O‘RNI HAQIDA //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 1. – С. 77-83.
19. Hikmat o‘g‘li A. S. et al. BIR UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODEL OPERATORINING XOS QIYMATI HAQIDA //Conferencea. – 2023. – С. 147-148.
20. Xolmanova, K. (2023). MAKSIMUMLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN YARIM O‘QDA BOSHLANG‘ICH MASALA. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(21). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/382>
21. Содиков Т. А. и др. НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ ПРИВЕДЕНИЯ К КАНОНИЧЕСКОМУ ВИДУ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТИПА ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ С ЧАСТНЫМИ ПРОИЗВОДНЫМИ //МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: К ВЕРШИНАМ ПОЗНАНИЯ 3. – 2023. – С. 7. <https://elibrary.ru/item.asp?id=50520439#page=7>
22. Yuldashev T. K., Kholmanova K. Y “NONLINEAR FREDHOLM INTEGRO-DIFFERENTIAL EQUATI WITH DEGENERATE KERNEL AND NONLINEAR МАХИМА” НЕЛИНЕЙНОЕ ИНТЕГРОДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОЕ УРАВНЕНИЕ ФРЕДГОЛЬМА С ВЫРОЖДЕННЫМ ЯДРОМ И НЕЛИНЕЙНЫМИ МАКСИМАМИ // Журнал математики и информатики. – 2021. – Т. 1. – №. 3 <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/matinfo/login?source=%2F>

BOSHQARISHDA AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA

Ubaydullayev Vasila Sadullayevna
UZMUJF o‘qituvchisi

Otamurodova Madina Ulug‘bek qizi, O‘zarqulova Nargiza Bolbek qizi
UZMUJF talabalari

Annotatsiya: Ushbu mavzu boshqaruv jarayonida axborotning tutgan o‘rni, kommunikatsiya tizimlarining mohiyati va ularning tashkilot faoliyatiga ta’sirini yoritadi. Axborot boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy manbai bo‘lib, uni to‘plash, qayta ishlash va yetkazish samaradorligi boshqaruv sifatini belgilaydi. Mavzuda ichki va tashqi kommunikatsiya jarayonlari, rahbar va xodimlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi, kommunikatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot tizimlari, shuningdek raqamli boshqaruvning afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan axborotning boshqaruvdagi xatolarga olib kelishi, samarali muloqotning tashkilot rivojiga ijobiy ta’siri haqida fikr yuritiladi. Mazkur mavzu zamonaviy boshqaruv amaliyotida axborot va kommunikatsiya jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: axborot, tashkilot, texnologiya, avtomatlashtirish, kommunikatsiya, mexanizmlashtirish, kompyuter, tijoratlashtirish.

Boshqarish jarayonlarini axborot bilan tahminlashni takomillashtirish yo‘nalishlari. tashkilot faoliyatini umuman olib qaraganda, rahbarlar tashkilotning informatsiya markazi hisoblanadilar. chunki, ular turli miqdordagi va ko‘rinishdagi informatsiyani qabul qiladilar, qayta ishlaydilar, tartiblashtiradilar, saqlaydilar va uzatadilar. bundan tashqari, ular faqat o‘zlari ishlab chiqqan informatsiya (turli qarorlar, loyihalar, maslahatlar va h.k.) orqali tashkilotni boshqaradilar va tashqi muhitga tahsir ko‘rsatadilar. boshqarish esa munosabatlarga tahsir etish demakdir. munosabatlar o‘z navbatida asosan informatsiya oqimi orqali o‘rnatiladi. Demak, tashkilot doirasida kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish har qanday boshqarish ishlari uchun muhim bog‘lovchi jarayondir, chunki boshqarish - turli munosabatlarni muvofiqlashtirish va tartiblashtirishdan iborat. Tashkilot faoliyatining uzluksizligi va bir maromdaligini tahminlash hamda boshqarish uchun zarur bo‘lgan informatsiya tizimini tashkil qilishda iloji boricha birlamchi (yahni ishlov berilmagan) axborotlarni kamaytirish, berilgan mahlumotlarni ko‘proq ishlatish, faqat boshqaruv uchun zarur bo‘lgan, diqqatga sazovor va qaror qabul qilish uchun kerakli axborotlarni berib borish zarur. Axborotlarni kamaytirish korxonaning hisoblash markazida saqlanuvchi shartli o‘zgarmaydigan axborotlar hisobiga amalga oshirilishi kerak. axborotlarning kamayishi avvalo shifr va kodlar kiritilishi hisobiga amalga oshiriladi. shu bilan birga bir xil mahlumotlar turli axborotlar olish maqsadida bir necha marta takror ishlatilishi mumkin. Boshqaruv jarayonining ulkan taraqqiyoti axborotlarga qayta ishlov Berishda kompyuter texnikasidan keng miqyosda foydalanishdir. Mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan axborot tizimining samaradorligi ularning quyidagi ishlarni bajara olishiga bog‘liq:

1. Juda oz vaqt ichida tashkilotning ichki xo‘jaliklaridan olingan axborotlarga ishlatish uchun qulay shaklda ishlov bera olish;
2. Avvaldan mahlum bo‘lgan iqtisodiy natijalar bilan birgalikda boshqaruvni asoslash niyatida axborotni imkoniyati boricha kengaytira olish;
3. Axborotlarni tartibga solingan holda jamlay olish va uzoq vaqt saqlay olish;
4. Qaror qabul qilish uchun axborotlarga maromiga yetkazib ishlov bera olish

Agarda tashkilotlar kompyuter hamda boshqaruv texnikasi bilan jixozlangan axborot boshqaruv markaziga ega bo‘lsalar, unda axborotlarga ishlov berish jarayoni quyidagi operatsiyalardan iborat bo‘ladi: Birlamchi axborotni qabul qilish va uni kompyuterga kiritish uchun tayyorlash, axborotlarni kompyuterga kiritish, axborotlarga ishlov berish, ularni chiqarish, axborotni boshqarish uchun kerakli joylarga berish, qabul qilingan qarorlarni aloqa tizimi vositasi bilan boshqariluvchi obyektlarga yetkazish va axborotlarni kelajakda ishlatish uchun qulay ko‘rinishda saqlash. Boshqaruv tizimida qayta ishlangan informatsiyalar natijasini belgilash shakllari muhim ahamiyatga ega. ular qaror qabul qilish jarayonida inson tushunib etishi uchun qulay bo‘lmog‘i kerak. Qayta ishlanuvchi axborot hajmining o‘sishi va boshqarishning murakkablashishi tabiiy ravishda kompyuterlarni qo‘llash zaruriyatini keltirib chiqaradi va bu axborotli boshqaruv tizimini shakllanishiga olib keladi. bunda avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari vujudga keladi. ularga

“odammashina” tizimlari, boshqarish vazifasini amalga oshirishda, yahni axborotni yig‘ish va qayta ishlashda obhektni maqsadga muvofiq ishlab turishini tahminlashda qo‘llaniladigan texnika vositalari va boshqaruv texnikasi kiradi. menejer boshqaruv jarayonida qanchalik axborotlar bilan to‘liq tahminlansa oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilishga erishadi. bu esa tashkilotni samarali boshqarilishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruv jarayonida axborot va kommunikatsiya eng muhim strategik resurslardan biri hisoblanadi. Tashkilotning samarali faoliyati rahbarning to‘g‘ri, aniq va o‘z vaqtida yetib kelgan axborotga tayanib qaror qabul qilish qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. Axborotning to‘g‘ri tashkil etilishi, uning oqilona tahlil qilinishi va samarali kommunikatsiya kanallari orqali yetkazilishi boshqaruv jarayonining sifatini oshiradi, xatolarni kamaytiradi va jamoada o‘zaro ishonch muhitini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev A., Saidov S. Boshqaruv asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
2. Fayzullayev B. Menejment nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. Muminov O. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsion nashriyot, 2021.
4. Karliyev M. Kommunikatsiya va boshqaruv psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2022.
5. Убайдуллаева В. Фанларни ўқитишда инновацион ёндашув //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 134-137.
6. Ubaydullaeva V. Digitization-an important “Driver” of the development of New Uzbekistan //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 173-176.